



JISMONIY TARBIYA VA SPORT SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING ROLI.

Gulbahor Yuldasheva,

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrası katta o'qituvchisi.

Hayotxon Raxmatova

FarDU, Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7526348>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sport sohasidagi murabbiylar, pedagoglar va sport mutaxassisleri nigohida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarb muammolari yoritilgan.

Kalit so'zlar: axborot, axborot texnologiyalar, axborot kommunikatsion texnologiyalar, kompyuter dasturlari, ijtimoiy tarmoqlar.

KIRISH

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash, sportda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, Respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish, shuningdek, sohani malakali kadrlar bilan ta'minlashni ko'zda tutuvchi 220 dan ortiq ustuvor loyihalarni amalga oshirish boshlangan [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son Farmoniga binoan tasdiqlangan.

«Raqamli O'zbekiston – 2030» Strategiyasida hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligini va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun

tegishli oliy ta'lim muassasalari biriktirilgan hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

ASOSIY QISM

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini malakasini oshirish tizimini modernizatsiya qilishi, sport ta'lim muassaslaridagi shart-sharoitlar, yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni o'sib borishi sport ta'lim muassasari faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning innovatsion faoliyatini tashkil etish va muvofiqlashtirib borishda muhim muammolarni bartaraf etishga qaratilgan talablardan biridir.

Jismoniy tarbiya va sport sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish hozirgi zamon talabiga aylangan. Soha mutaxassislarini kompyuter texnologiyalari bo'yicha bilim, ko'nikma, malakalari asosida sport ta'lim jarayonlari samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlaridagi mavjud vaziyatlarni, ehtiyoji hamda qiziqishini o'rganish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Sport ta'limi muassaslarida yangi axborot texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanish orqali tizimni takomillashtirishning yangi yo'nalishlarini ochilishiga sabab bo'ldi. Sport sohasidagi ta'lim muassasalarida sport turlari bilan shug'ullanadigan o'quvchi-sportchilarni jismoniy tayyorgarlik darajasini nazorati va tahlilida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'rnini beqiyos va hozirda ko'pchilik soha mutaxassislari bu imkoniyatlardan keng foydalanmoqda.

Sport sohasidagi ta'lim muassasalarining o'quv jarayonlarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan mobil telefonlar, kompyuterlar, planshetlardan foydalanish uchun zarur bo'lgan axborot resurslarini yaratish bugungi kunning talabiga aylangan. Bu, ta'limning yangi shakl va usullaridan foydalanish, an'anaviy o'qitish usullariga qo'shimcha ravishda yangi ta'lim shakli – axborot texnologiyalarini yaratilishiga omil bo'ldi.

Zamonaviy ommaviy kommunikatsiya vositalarini jadal ommalashuvi natijasida, ular jahon media maydoni sahnasida katta mavqega ega bo'lmog'da. Shunday ommaviy muloqot vositalaridan biri – ijtimoiy tarmoqlardir. Jismoniy tarbiya va sportda ijtimoiy tarmoqlarni targ'ibotchi sifatida e'tirof etish mumkin. Uni e'tiborli jihati shundaki, yoshlarimizni jipslashtirayotgan tarmoqda sportga oid ommabop guruhlar orqali sportni respublikamizda yanada rivojlantirishga bevosita xizmat qilmoqda.

“Kasbiy faoliyatingiz uchun yangiliklarni internetning qaysi manbalaridan olasiz?” degan savolga 20,2% – ziyonet ta'lim portalidan, 50,7% – youtebedan, 52,3% – Telegram messenjerida, 15,5% Instagramdan, 13,6% – Facebookdan, 41,6% – turli internet sahifalaridan olishlarini bildirganlar. Ko'rinib turibdiki, sport mutaxassislari asosiy yangiliklarni Telegram messenjeri va youtebe dan olishadi. Eng muhimi, bugungi davrda ijtimoiy tarmoqlar an'anaviy ommaviy axborot vositalari bilan chambarchas bog'lanib, birgalikda rivojlanib borar ekan, jismoniy tarbiya va sport sohasida ulardan kengroq va samaraliroq foydalanish mumkin. Ana shu tarmoqlardagi axborot oqimlarini to'g'ri yo'lga solish, jahon tajribasi asosida xabarlar va yangiliklarni kuzatib borish va ularni tartibga keltirish, zarur holatlarda boshqarib borishni yo'lga qo'yish, yuzaga kelayotgan yangi imkoniyatlarni tadqiq etish va mustahkamlash orqali samaradorlikni oshirish zarurdir. Bu esa, respublikamizda shu ijtimoiy tarmoqlarni o'rnini egalay oladigan milliy ijtimoiy tarmoq yoki saytlarni ko'paytirish hozirgi zamon talabi bo'lib kelmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa sifatida jismoniy tarbiya va sport sohasiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilishi sportchilarning o'quv-mashg'ulot va musobaqa jarayonini samarali boshqarish, ularning jismoniy hamda sport ko'rsatkichlarini tizimli ob'ektiv baholashda, ilmiy axborotni taqdim etish, tahliliy qayta ishlash, saqlash hamda amaliyotda qo'llashning eng maqbul yo'llarini ishlab chiqishni alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlash mumkin. Sport ta'lim

jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari qanday bo'lishidan qat'iy nazar samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Metodik jihatdan pedagogik dasturiy vositalar sifatida quyidagilardan foydalanish samaralidir: elektron darsliklar, trenajyor dasturlar, nazorat qiluvchi dasturlar (test qobiqlari), ma'lumotnomalar (ensiklopediyalar), virtual laboratoriyalar, modellashtiruvchi dasturlar, taqdimot va namoyish dasturlari (slydlar yoki videofilmlar), o'quv-o'yin dasturlari (mantiqiy o'rgatuvchi va h.q.).

O'qituvchining faoliyati uning axborotlardan xabardorligi va axborotlardan samarali foydalanish qobiliyatiga ko'p jihatdan bog'liq. Demak, birinchidan, Zamonaviy sport mutaxassisi axborot oqimlarida erkin yo'nalish olishi uchun kompyuterlar, telekommunikatsiya va axborotning boshqa vositalari yordamida axborotlarni olishni, qayta ishlashni va ulardan foydalanishni bilishi lozim. Ikkinchidan, mutaxassisning zarur bo'lgan axborot madaniyati darajasini ta'minlash, faqatgina bitta o'quv fanining maqsadi bo'lib qolmasligi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4699-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4800657>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349-sonli Farmoni. <https://www.lex.uz/docs/3564970>.
3. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ -637-son.
4. Гурев С. В. "Современные информационные технологии в физической культуре и спорте"/ Монография, Российский государственный профессионально-педагогический университет, Екатеринбург, 2014.
5. Tolametov A.A. «Sport metrologiyaci» /o'quv qo'llanma T.: "Yangi asr avlodi",

2009.

6. Tolametov A.A. Jismoniy tarbiya va sport ta'limida axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini oshirish omillari. // "Jismoniy tarbiya va sport" jurnal № 10, 2019. 8-9 betlar.
7. Йулдашева Г., Йўлдошева М. Использование информационных технологий в организациях. Scientific progress. – 2022. – Т. 3. – №. 3. – С. 477-480.
8. Ibragimovna Y. G., Xokimovna K. Z. Informatika fanini o'qitish jarayonida Mobil texnologiyalardan foydalanish. Miasto Przyszłości. – 2022. – Т. 29. – С. 385-387.
9. Yuldasheva G. I. Ta'lim samaradorligini oshirishda elektron darsliklardan foydalanish. Youth, science, education: topical issues, achievements and innovations. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 36-39.
10. Yuldasheva G., Yo'ldosheva M. Factors of informatization of the process of primary education. «Экономика и социум». Выпуск №12(91). 689-692 .
11. G.Yuldasheva., D.Begmatova Zamonaviy ta'lim tizimida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International Academic Research Journal 2022. 57-61.
12. Yuldasheva G., Shermatova H. Ta'limda innovatsion texnologiyalarning qo'llanilish istiqbollari //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B8. – С. 5-9.
13. Yuldasheva, G. I., & Shermatova, K. M. (2021). The use of adaptive technologies in the educational process. Экономика и социум, (4-1), 466-46
14. Shermatova, Z., & Shermatova, H. (2022). The role of electronic educational manuals in the field of ICT. Интернаука, 4(1), 46-47.
15. Аскарлова, Ш. М. (2018). Инновационная технология в обучении естественных предметов. In Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018) (pp. 1221-1225).

16. Mirzaakbarov, D. D. (2021). Directions for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, (4-1), 211-214.
17. Алдашев И. Использовать специфические свойства компьютера, позволяющие индивидуализировать учебный процесс и обратиться к принципиально новым познавательным средствам //Экономика и социум. – 2020. – №. 6. – С. 337-340.
18. Ibragimovna Y. G. Advantages of credit-module system in the field of education //International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – С. 14-16.